Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316873

kichik korxonada buxgalteriya hisobining tashkiliy tuzilmasi va vazifalar taqsimotini, hujjatlar aylanishini namunaviy sxemasini o‘z ichiga olgan kichik korxona namunaviy hisob siyosati ishlab chiqilishi zaruriyati sezilmoqda. Shuningdek, kichik korxonalar hisob siyosatini ishlab chiqishda boshqaruv hisobi doirasidagi maslalarga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu vazifalar oqilona bajarilishi uchun tannarxni tashkil etuvchi xarajat moddalari klassifikatsiyasini belgilab olish, ustama xarajatlarni taqsimlashdagi mezonlarga, korxona budjeti o‘z ichiga oladigan jadvallar va natural-moddiy va qiymat balanslarining shakllariga nisbatan bir xil talablar qo‘yilishi ham kichik biznesda qarorlar qabul qilinishi jarayoni puxtaligini yaxshilashga yordam berishi mumkin. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish davlatning asosiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy yo’nalishlarida asosiy o’rinni egallamoqda.

Foydalanilgan adbiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonuni. Toshkent, 1996 yil 30 avgust.

2.O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. 2000 yil 26 may.

3. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yildagi «Korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni.

5. http://www.mf.uz

6. http://www.gov.uz/uzbekistan/transportation

7. http://www.gov_stat.uz

8. http://www.referat.ru/economy/management

ISHLAB CHIQARISH HAJMI SAMARASIGA KO’RA FIRMANING OPTIMAL O’LCHAMINI ANIQLASH

Qurbonov Jasurbek Pozilovich
TDIU, Andijon fakulteti, “Mutaxasislik fanlari” kafedrasi dotsenti, PhD
Qodirova Gulnoza
TDIU, Andijon fakulteti “Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo’nalishi,2-kurs talabasi

*Annotatsiya:*Ushbu tezisda firmaning optimal hajmi uning samaradorligi, unumdorligi va rentabelligini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu dissertatsiya firma hajmi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan bo‘lib, pirovardida maksimal ishlab chiqarish samaradorligiga erishadigan optimal firma hajmini aniqlashga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, empirik tadqiqotlar o‘tkazish va statistik usullardan foydalanish orqali ushbu tadqiqot korxonalar va siyosatchilar uchun firma hajmini optimallashtirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishda qimmatli tushunchalar berishga intiladi.

Published: 17.05.2024

Cite this article: Qurbonov Jasurbek Pozilovich, Qodirova Gulnoza (2024). Ishlab chiqarish hajmi samarasiga ko‘ra firmaning optimal o‘lchamini aniqlash. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316873

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Abstract: In this thesis, the optimal size of the firm plays a decisive role in determining its efficiency, productivity and profitability. This dissertation aims to study the relationship between firm size and production capacity, and ultimately to determine the optimal firm size that achieves maximum production efficiency. By analyzing existing literature, conducting empirical research, and using statistical methods, this study seeks to provide valuable insights for businesses and policymakers to make informed decisions about optimizing firm size.

Аннотация: В данной диссертации оптимальный размер фирмы играет решающую роль в определении ее эффективности, производительности и прибыльности. Целью этой диссертации является изучение взаимосвязи между размером фирмы и производственными мощностями и, в конечном итоге, определение оптимального размера фирмы, обеспечивающего максимальную эффективность производства. Анализируя существующую литературу, проводя эмпирические исследования и используя статистические методы, это исследование направлено на предоставление ценной информации предприятиям и политикам для принятия обоснованных решений об оптимизации размера компаний.

Kalit so’zlar: Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash, Xarajatlari o‘zgarmas bo‘lgan tarmoq

Uzoq muddatli oraliqda firma foydalanadigan barcha omillarini o‘zgartiradi, shu jumladan ishlab chiqarish quvvatlarini ham. Uzoq muddatli oraliqda firma o‘z kapitali hajmini o‘zgartirishi, ya’ni ishlab chiqarish quvvatini o‘zgartirishi mumkinligi firmaga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Firma ishlab chiqarish xarajatlarining qanday o‘zgarishi ishlab chiqarish masshtabi samaradorligining o‘sishi, o‘zgarmasligi va kamayishi bilan aniqlanadi. Yana shuni eslatib o‘tish kerakki, firmaning uzoq muddatli oraliqdagi faoliyatini tahlil qilganimizda uning o‘rtacha xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Faraz qilaylik, firmaning ishlab chiqarish jarayonida barcha ishlab chiqarish hajmlari uchun o‘zgarmas masshtab samarasiga ega. Bunda ishlab chiqarish omillari sarfi ikki barobar oshganda ishlab chiqarish hajmi ham ikki barobarga o‘sadi. Demak, ishlab chiqarish hajmi oshgani bilan o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlari o‘zgarmaydi.

Endi faraz qilaylik, masshtab samarasi o‘suvchi bo‘lsin. Ishlab chiqarish omillaridan fodalanishni ikki barobar oshirganimizda, ishlab chiqarish hajmi ikki barobardan ko‘proqqa oshadi (masalan, uch barobarga oshirishi mumkin). Bunday holda o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi, nima uchun deganda, ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati, omillar sarfi sur’atidan ko‘p. Xuddi shunday, masshtab samarasi_pasayganda, ya’ni ishlab chiqarish omillari sarfini o‘sishi sur’atidan ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati kichik bo‘lganda *ATC* ortib boradi. Odatda, ishlab chiqarishning boshida masshtab samarasining oshishi,undan keyin o‘zgarmas va keyinchalik kamayishi ko‘pgina firmalarga xosdir. Shuning uchun ham uzoq muddatli oraliqda umumiy o‘rtacha xarajatlar chizig‘i botiq ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Tarmoqning uzoq muddatli oralidagi umumiy taklifi. Qisqa muddatli oraliqda bozor taklifi firma taklif chiziqlari yig‘indisi orqali topilardi. Uzoq muddatli

oraliqdagi taklifni firma takliflarini qo‘shish orqali aniqlab bo‘lmaydi. Nima uchun deganda, uzoq muddatli oraliqda bozor narxining o‘zgarishiga ko‘ra firmalar bozorga kiradi yoki undan chiqadi. Bu o‘z navbatida firmalar taklif chiziqlarini qo‘shib bo‘lmasligini ko‘rsatadi (qaysi firmalar bozorda qolayotganligini biz bilmaymiz).

Uzoq muddatli oraliqdagi taklifni aniqlashda ishlab chiqarish hajmining kengayishini faqat resurslardan foydalanishning kengayishi hisobidan bo‘ladi, deb faraz qilinadi. Ixtiro va texnologiyaning ishlab chiqarishga ta’siri o‘zgarmas deb qabul qilinadi. Uzoq muddatli oraliqdagi umumiy taklifning shakli tarmoqda ishlab chiqarish hajmi o‘sishining yoki kamayishining foydalaniladigan ishlab chiqarish omillari narxiga ta`siri darajasiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham uch turdagi tarmoq xo‘jaligi qaraladi: xarajatlari o‘zgarmas, o‘suvchi va kamayuvchi tarmoqlar.

Xarajatlari o‘zgarmas bo‘lgan tarmoq. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmining o‘sishi foydalaniladigan resurslarning narxiga ta`sir qilmasa, biz yuqorida ko‘rdikki, tarmoqning kengayishi va qisqarishi muvozanat narx ga ta’sir qilmaydi. Biror sabab bilan (masalan, iste’molchi didining o‘zgarishi) talab oshganda mahsulot narxi oshadi va tipik firma musbat iqtisodiy foyda ola boshlaydi. Bu foyda boshqa firmalarni ushbu tarmoqqa kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Boshqa firmalarning kirib kelishi taklifni oshiradi, natijada oshgan narx o‘zining oldingi muvozanat holati ga qaytadi. Bundan kelib chiqadiki, xarajatlari o‘zgarmas bo‘lgan tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi taklif chizig‘i narx uzoq muddatli o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini minimumiga teng bo‘lganda gorizontal chiziqdan iborat bo‘ladi. Narx muvozanat narx R_0 dan yuqori bo‘lsa iqtisodiy foyda musbat bo‘ladi va bozorga yangi firmalar kirib qisqa muddatli taklifni oshiradi va bu narxni oldingi muvozanat holatiga qataradi. O‘zgarmas xarajatga ega tarmoqning uzoq muddatli o‘rtacha xarajatlar chizig‘i gorizantal bo‘ladi.

Ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqqan holda firmaning optimal hajmini aniqlash har xil omillarni sinchiklab tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladigan murakkab vazifadir. Nazariy asoslarni, empirik tadqiqotlarni va tavsiya etilgan yondashuvlarni tushunish orqali korxonalar va siyosatchilar firmalarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradigan asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Optimal firma hajmiga erishish tashkilotlarga iqtisodlar va miqyosdagi iqtisodsizliklar o‘rtasida muvozanatni saqlash, natijada ularning ishlab chiqarish samaradorligi va uzoq muddatli barqarorligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Milliy hisoblar(Stat.uz)
2.Lex.uz.
3.Ish bilan ta’minlash-Vikipediya.
4.Pindayk Robert. Mikroiqtisod: Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan/ Pindayk Robert, Rubinfeld Daniel. – T.; 2002.
5. E.Egamberdiev. Mikroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: 2005 y.